



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№4(5)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 416 sahifa,
27-aprel, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Формирование здоровьесберегающей образовательной среды в начальной школе в условиях инклюзии.....	10
Тургунова Нилуфар Абдусаломовна	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tez va aniq hisoblash ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	16
Dehqonova Maxliyoxon Shuhratjon, Musinjonova Dildoraxon Mahmudjon	
Научно-педагогический анализ методов математического моделирования: численные и аналитические подходы в обучении студентов	19
Мусурмонова Маъмура Оман кизи, Жураева Феруза Бахтиёр кизи, Сарсенбаева Мархабо Шадибековна	
Inklyuziv ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiy moslashuvini rivojlantirish texnologiyasi.....	26
Turdimurodova Muazzam Muzaffarbek qizi	
M. Tvenning "Tom Soyerning boshidan kechirganlari" romanida bolalar obrazining tasviri masalasi	29
Sattarov Farrux Nuridinovich	
Pedagogik dasturiy vositalar yordamida dars sifatini oshirish	35
D. K. Ibadullayev	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning kasbga qiziqishlarini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati	41
Isabekova Dilafruz Shermirzayevna	
Молодёжь Узбекистана в системе политических процессов.....	46
Юсупова Элеонора Фердинандовна	
Математика o'qitishda zamonaviy yondashuvlar: vaziyatli tahlil va amaliy samaradorlik	51
Matyaqubova Nazira Hikmat qizi	
Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini sun'iy intellekt texnologiyalari asosida rivojlantirishning metodik modeli.....	54
Choriyev Olmosbek Baxriddin o'g'li	
Fan va tilni integratsiyalashgan holda o'qitish (CLIL)	60
M. D. Boynazarova	
Оптимизация показателей сердечного цикла у спортсменов при хроническом физическом перенапряжении посредством фармакологической поддержки	63
Нормуратов Абдулла Саппарович	
Chidamlilikka yo'naltirilgan sport turlarida uglevod va energiya almashinuvini farmakologik korreksiyasi....	67
Normuratov Abdulla Sapparovich	
O'quvchilarga dutor ijrochiligini o'rgatishning pedagogik yondashuvlari	70
Sa'dullayev Og'abek Abdurashid o'g'li, Nazirullayeva Nodira Akmal qizi	
Bolalar musiqa va san'at maktablarida individual va jamoa mashg'ulotlarini tashkil etish mexanizmlari (cholg'u ijrochiligi misolida).....	74
Omonova Charos Baxodir qizi	
Bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining o'quv-biluv faoliyatini motivatsiyalashda interfaol metodlardan foydalanish.....	79
Saidova Zulfizar Norbobo qizi	
O'qituvchining kognitiv egizagi (Digital Twin): sun'iy intellekt yordamida individual pedagogik uslubni modellashtirish.....	83
Kuchkarova Feruza Qambaraliyevna	
Abdusamad Boboxo'jayev rahbarligida tarix va arxeologiya institutining rivoji: 1964-yilgi arxiv hujjati misolida	91
Abdullayev Botir Jabbor o'g'li	
Maktab o'quvchilarining musiqiy idrokni shakllantirishning ijtimoiy va didaktik zarurati.....	93
Abdumannan Maxammatov	



“Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kalokagatiyani rivojlantirishning KAMOL modeli asosidagi pedagogik texnologiyasi”	97
<i>Abdurahmonova Dilorom Jovliyevna</i>	
Morphological Structure and Word Formation of Ecotourism Terminology: A Cross-Linguistic Analysis With Reference to the Uzbek Language.....	104
<i>Absamatova Charos</i>	
Fizika fanini o'tmda o'qitishda masalalar yechishning ilmiy-metodik ahamiyati	107
<i>Akmal Mustafoyev Isaqulovich, Munajat Mustafoyeva Oltibekovna</i>	
Kasbiy yo'naltirilgan ingliz tili darslarida metakognitiv strategiyalar asosida akademik nutqni rivojlantirish ..	111
<i>Allamuratov G'ofur Ashurovich</i>	
Maktabgacha ta'limda bolalarning mayda qo'l motorikasini rivojlantirish metodikasi	116
<i>Amanova Albina Dexqon qizi</i>	
Psychological Approaches in Teaching English in Preschool Education and their Effectiveness	120
<i>Berdiqulova Zamira Albertovna</i>	
The Role of Family, Education, and Community Systems in Shaping Individual Psychological Well-Being .	124
<i>Diibar Abdullayeva Ubaydullayevna, Iroda Panjiyeva Khayitovna</i>	
Nomoddiy madaniy merosning talaba-yoshlarni yuksak ma'naviyatli shaxs sifatida tarbiyalashdagi ahamiyati	127
<i>Erboyev Suxrob Abdusalomovich</i>	
Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida inson resurslarini boshqarishda muvozanatlashgan ko'rsatkichlar tizimidan foydalanishning nazariy asoslari	131
<i>Gulmira Jumanova</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o'stirishda badiiy adabiyotning dolzarbligi	135
<i>Hasanova X. Z.</i>	
Gospital ta'lim sharoitida ona tili fanini o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligi	139
<i>Hikmatov Bobobek Saydulloyevich</i>	
ASB bo'lgan bolalarda sensor buzilishlarning kognitiv va ijtimoiy rivojlanishga ta'siri	142
<i>Isaxanova Oybarchin Abduraxim qizi</i>	
Maktabgacha ta'limda kommunikativ faoliyat samaradorligining pedagogik mexanizmlari	146
<i>Maxmutazimova Yulduz Raxmatovna</i>	
David haykali ko'z bo'lagining qalamtasvirini bajarish usullari.....	149
<i>Mo'minov Baxtiyor Karamatovich</i>	
Ta'limda fanlararo integratsiyadan foydalanishning pedagogik va psixologik asoslari	154
<i>Oblakulova Nodira Abduvali qizi</i>	
Ellipslarni tasviriy san'at va muhandislik grafikasida yasash metodikasi.....	160
<i>Sheraliyev Sanjarbek Karimberdiyevich</i>	
Kommunikativ strategiyaning yuzaga kelish omillari	170
<i>Normaxmatova Feruza Ruziboyevna</i>	
Umumta'lim maktab musiqa madaniyati darslarida raqamli texnologiyalardan foydalanish muammo va yechimlari	174
<i>O'rishboyeva Xumora O'rol qizi</i>	
Maktabda jismoniy tarbiya darslarida futbol elementlaridan foydalanib 10-11 yoshli bolalarda tezkor-kuch qobiliyatlarini rivojlantirish uslubiyati	177
<i>Qurbonbayeva Maftuna G'ayrat qizi</i>	
Maktabda darsdan tashqari futbol to'garaklarida o'quvchilarning tezkor-kuch qobiliyatlarini takomillashtirish	182
<i>Ro'ziboyeva Fotima Quدرات qizi</i>	
Matn ustida ishlash samaradorligini baholash mezonlari	187
<i>Sadarova Nilufar</i>	
Neyroestetik stimulning yosh dinamikasidagi roli: kognitiv emotsional sferani qayta tashkil etish mexanizmlari.....	193
<i>Salaxidinova Xolida Xaliljonovna</i>	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	<p>Kasbiy ta'limda o'quvchilarning psixologik va axloqiy sifatleri 198 Salomov Abdurasul Axmadovich</p> <p>Funksiyaning hosilasi yordamida o'sish va kamayish oraliqlarini aniqlash metodikasi 201 Sherzad Eshjanovich Bekchanov, Shohida Sadullaeva Ziyadullaeva, Abdusalom A. Xudoyberdiev</p> <p>Bo'lajak tarbiyachilarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishda psixologik treninglarning nazariy va amaliy asoslari..... 205 Sojida Safarova Saxadin qizi</p> <p>Destruktiv xulq-atvor psixologik va pedagogik qarovsizlik oqibati sifatida..... 207 Umirzoqova Shodiya Lutfullo qizi</p> <p>Maktabgacha ta'limda bolalar bilan innovatsion texnologiyalar yordamida ekologik omillarni singdirish 210 Xoldorova Mashxura G'ulomovna</p> <p>Роль антиоксидантной системы в повышении работоспособности спортсменов 214 Нурбаев Бахтиёр Шириневич</p> <p>Shaxs irodaviy sohasini rivojlantirishning psixologik determinantlari..... 217 To'ychiyeva Shoyista Jumabayevna</p> <p>Ta'lim jarayonida va talabalarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ahamiyati 223 X. Xalilova, N. Niyazova</p> <p>Optimization of Periodontal Disease Treatment Tactics in Patients With Chronic Hepatitis C After Achieving a Sustained Virological Response 227 Makhmudova Ugiloy Bakhtiyorovna</p> <p>Pathogenetic and Clinical Rationale for the Prevention and Management of Periodontal Diseases in Workers Within Dust-Hazardous Environments 230 Turumova Marjona Bakhodirovna</p> <p>Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarining boshqaruv faoliyati va kasbiy madaniyati 233 Imamova Nilufar Zabiylxulla qizi, Soloyeva Rayhonoy Ravshanbek qizi</p> <p>Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida integratsiyalashgan ijodiy muhitni tashkil etishning ilmiy-metodologik asoslari 236 Sultanov Xaytboy Eraliyevich</p> <p>Ma'naviy-ma'rifiy faoliyat orqali o'smirlarda huquqbuzarlik profilaktikasining pedagogik asoslari 241 Umarov Qobiljon</p> <p>Maktab o'quvchilari orasida kiberbulling profilaktikasi yo'llari 245 Jannazarova Juldizxon Aliiyar qizi</p> <p>Kimyo ta'limi jarayonida kreativ yondashuv asosida kompetensiyaviy yondashuvni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish 250 Allaberdiyeva Zebinisobegim Ismoiljon qizi</p> <p>Universality in Phraseological Units in English, Dutch and Uzbek 253 Khaydarova Guzalkhon</p> <p>Texnologik ta'limda axborot texnologiyalaridan foydalanishning o'quv samaradorligiga ta'siri: universitet darajasida istiqbollor 256 Musurmonova Ma'mura Oman qizi, Berdiyeva Gulnoza Rizoqulovna</p> <p>Chet el va mahalliy tajribalarda muhandislik musobaqalari samaradorligi 261 N. Nomozova, A. Muxamadiyev</p> <p>Autizm spektri buzilishlarining klinik-pedagogik xususiyatlari va ularni korreksiyalashning ilmiy asoslari..... 267 Polatova P. M., Polvonova Kishchan Ravshanovna</p> <p>Tenglamalar ildizlarini aniqlashda vatarlar usuli va python dasturiy modeli 272 Rizayeva Bahoroy Jahongir qizi</p> <p>Algebra fanini o'rganishda talabaning xatolarini tahlil qilish va ularni bartaraf etish usullari 277 Zaxiriddinova Shahlo Zahiriddin qizi, Norboyeva E'zoza O'tabek qizi, Oqbutayeva Sumbula Normuhammad qizi</p> <p>Интегрированный подход как основа развития русской связной речи иноязычных студентов неязыковых специальностей 280 Бозорова Хулкар Одинакуловна</p>
-------------------------------------	--



Оптимизация трудовых отношений в системе общего среднего образования на основе HR-менеджмента: эмпирический анализ.....	284
Турикова Лазокат Машрабовна	
Pedagoglarning huquqiy maqomi hamda global kompetensiyalar bilan bog'liq muammo va yechimlar.....	296
Javohir Baxtiyorovich Shukurov	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida og'zaki nutqni rivojlantirishning kommunikativ yondashuv asoslari.....	305
Holikulova Feruza Xasanovna	
Talabalarda internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishning agressiv xulq-atvorga ta'siri.....	309
Tosheva Sayyora Raxmonqulovna	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirishning nazariy asoslari.....	314
Nurmatova Iroda Toxtasinovna, Qutlimuratova Dilnoza Oybek qizi	
O'quv materiallarini didaktik prinsiplar asosida bayon qilishning nazariy-amaliy asoslari.....	318
Turdiyeva Navruza Sheraliyevna	
Raqamli va globallashtirilgan muhitda maktabgacha yoshdagi bolalarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini rivojlantirish.....	323
Avazova Xidoyat Zafar qizi	
Boshlang'ich sinf o'qish darslarida badiiy asar tahlil qilish kompetensiyasini shakllantirish orqali o'quvchilar nutqini boyitish ("Bog'bon va nihol" rivoyati misolida).....	327
Normurodova Nigora Abdusattorovna, Abduxalilova Mohinur To'raqul qizi	
Qoraqalpog'iston cho'l yaylovlarning holatiga katta qumsichqonlar ta'sirini baholash.....	331
Adilbayeva Genjexan	
O'zbekiston zaminida uyg'onish - renessans hodisasining yuz berishi: shakllanishi, musulmon va insoniyat dunyosi taraqqiyotidagi o'rni.....	335
Choriyev Mirjalol Baxtiyor o'g'li	
Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining ekologik kompetentligini badiiy-loyihaviy faoliyat orqali rivojlantirish metodikasi.....	340
Istamov Zavqiddin Sa'dulloevich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida fonetik kompetensiyani rivojlantirish orqali orfoepik bilimlarni shakllantirish.....	344
Mamasidikova Naima Toxirjon qizi	
Talabalarining mustaqil o'qish va o'rganish kompetensiyalarini rivojlantirishning metakognitiv aspektlari.....	348
Mirsobitova Parvina Bahodir qizi	
Sun'iy intellekt vositasida talabalarining axloqiy-estetik madaniyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari..	351
Muminov Zokir Sharop o'g'li	
Ta'lim muhitining o'quvchilarning emotsional holatiga ta'siri.....	354
Nurmatov Nurhayot Nurziyat o'g'li, Otaqurbonbova Nigina Rustam qizi	
STEAM yondashuvi asosida o'simliklar fiziologiyasi fanida o'quv mazmunini didaktik qayta tashkil etish xususiyatlari.....	358
Xoliqulova Gulchehra Alimardon qizi	
Особенности развития эмоционального интеллекта у детей дошкольного возраста.....	363
Мирзаева Наргиза	
Inklyuziv ta'limni tashkil etishning pedagogik asoslari.....	367
Abdanbekova Nilufar Rixsiyevna	
O'qituvchining pedagogik mahoratini takomillashtirish va uni rivojlantirish omillari.....	370
Ismailova Shaira Ferdausovna	
Maktab o'quvchilarida o'zini o'zi tarbiyalashni shakllantirishning pedagogik asoslari (8–9-sinflar asosida)..	373
Norxo'jayeva Lobar Nuriddin qizi	
Inkluziv ta'limda pedagoglarning mahorati va pedagogik innovatsiyalar.....	378
Raxmonova Gullola Shavkatovna	
The Impact of Collaborative Writing Activities on EFL University Students' Essay Writing Skills: A Classroom-Based Study.....	382
Shovkiewa Munisa Shonazar kizi	

MUNDARIJA SOÐERJANIE CONTENTS

ChatGPT va generativ AI vositalarining o'quv jarayonidagi didaktik imkoniyatlari.....	386
<i>Sotivoldiyev Shohruhmirzo Abdumalik o'g'li</i>	
O'qituvchi shaxsining pedagogik etikasi va kasbiy madaniyati.....	390
<i>Sultonova Nargiza Nigmatovna</i>	
Raqamli transformatsiya sharoitida talabalarining media savodxonligini rivojlantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlari.....	393
<i>Zaxiriddinova Shaxlo, Nurova Manzura, Murodova Fayoza</i>	
Talabalar matematik tafakkurini rivojlantirishda analizdan masalalar yechish strategiyalari	397
<i>Zaxiriddinova Shaxlo, Tufliyeva Roziya, Ismatullayev Javohir</i>	
Роль социальной компетенции в процессе интенсивного когнитивного развития	402
<i>З. Ф. Азизова</i>	
Роль научного знания в повышении качества образования	406
<i>Сагатова Диёра Абдулазиз кизи</i>	
Методы использование информационных технологий в научном исследовании качества образования в ВУЗе.....	409
<i>Уразова Марина Батыровна, Туленова Карима Жандаровна, Генжебаева Кундуз Саламат кизи</i>	
Академический стресс и формирование механизма "Самообвинения" у студентов	412
<i>Хошимова Дилорам Анваровна, Немаджанова Наргиза</i>	



TALABALARDA INTERNET VA IJTIMOYIY TARMOQLARDAN FOYDALANISHNING AGRESSIV XULQ-ATVORGGA TA'SIRI

Tosheva Sayyora Raxmonqulovna

Navoiy davlat universiteti, Psixologiya mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishning talabalarning psixologik holati hamda xulq-atvoriga, xususan, agressiv xatti-harakatlariga ta'siri nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Internet muhiti talabalarga axborot olish, o'zini ifoda etish va ijtimoiy aloqalarni rivojlantirish imkonini bersa-da, anonimlik, salbiy kontent va virtual muhitdagi destruktiv munosabatlar ularning emotsional barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Maqolada agresiviyaning psixologik mexanizmlari, kiberagressiya, internetga qaramlik va ijtimoiy tarmoqlarning talaba shaxsiga ta'siri nazariy jihatdan o'rganiladi. Shu bilan birga, yoshlar orasida agressiv xulq-atvorni kamaytirishga qaratilgan nazariy profilaktik chora-tadbirlar ham keltiriladi.

Kalit so'zlar: internet, ijtimoiy tarmoqlar, agressiv xulq-atvor, talaba yoshlar, kiberagressiya, internetga qaramlik, psixologik omillar.

Abstract: This article provides a theoretical analysis of the impact of internet and social media use on students' psychological state and behavior, particularly regarding aggressive actions. While the online environment allows students to access information, express themselves, and develop social connections, anonymity, negative content, and destructive interactions in the virtual space may negatively affect young people's emotional stability. The article explores the psychological mechanisms of aggression, cyber-aggression, internet addiction, and the influence of social media on student personality. Theoretical preventive measures aimed at reducing aggressive behavior among youth are also discussed.

Key words: internet, social media, aggressive behavior, students, cyber-aggression, internet addiction, psychological factors.

Аннотация: В данной статье теоретически анализируется влияние использования интернета и социальных сетей на психологическое состояние и поведение студентов, в частности на проявления агрессивного поведения. Интернет-среда предоставляет студентам возможность получать информацию, выражать себя и развивать социальные контакты, однако анонимность, негативный контент и деструктивные взаимодействия в виртуальной среде могут оказывать отрицательное влияние на эмоциональную устойчивость молодежи. В статье рассматриваются психологические механизмы агрессии, киберагрессия, интернет-зависимость и влияние социальных сетей на личность студента. Кроме того, приводятся теоретические профилактические меры, направленные на снижение агрессивного поведения среди молодежи.

Ключевые слова: интернет, социальные сети, агрессивное поведение, студенты, киберагрессия, интернет-зависимость, психологические факторы.

KIRISH

XXI asrda internet va ijtimoiy tarmoqlar jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylandi. Ayniqsa, talaba yoshlar orasida internetdan foydalanish nafaqat axborot olish, balki ijtimoiy aloqalarni rivojlantirish, o'zini ifoda etish va shaxsiy identifikatsiya vositasi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. So'nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yoshlar orasida internetdan faol foydalanish va ijtimoiy tarmoqlarda muntazam ishtirok etish bilan birga, ularning emotsional holati hamda xulq-atvorida ayrim murakkab jihatlar kuzatilmoqda.

Internetga qaramlik – bu internetdan foydalanishga bo'lgan kuchli ehtiyoj, undan ortiqcha foydalanish hamda internetda ko'p vaqt sarflash bilan tavsiflanadigan holatdir. Internetga qaramlik tibbiy jihatdan alohida ruhiy kasallik sifatida belgilanmagan bo'lsa-da, u video o'yinlarga qaramlik va onlayn qimor o'yinlariga haddan tashqari berilish kabi holatlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Zamonaviy talabaning ijtimoiy rivojlanish muhiti axborot oqimining yuqori darajasi, ko'p kanalli kommunikatsiya vositalari, turli qadriyatlar ta'siri hamda madaniy-tarixiy tajribani uzatish shakllarining kengayishi bilan

tavsiflanadi. Bu jarayon bir tomondan ta'limni samarali tashkil etish uchun keng imkoniyatlar yaratadi, ikkinchi tomondan esa talabalarning psixologik salomatligiga e'tibor qaratishni talab etadi.

Internetning oliy ta'lim muassasalari talabalari hayotiga ta'siri katta ahamiyatga ega. U talabalarga o'qish jarayonida ham, bo'sh vaqtni mazmunli tashkil etishda ham zarur vosita hisoblanadi. Yuqori sifatli internetga ulanish bugungi kunda talabalar uchun muhim ehtiyojga aylanib bormoqda. Agar OTM talabasi internetga ulanmasa, ayrim o'quv materiallaridan foydalana olmaydi, topshiriqlarni Hemis platformasiga joylashtira olmaydi hamda akademik majburiyatlarini to'liq bajarishda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Shuningdek, internet orqali o'tkaziladigan imtihon, test va turli savolnomalarda ishtirok etish imkoniyatlari ham cheklanadi.

Talabalarda kuzatilayotgan internetga qaramlikning psixologik jihatlarni o'rganish hozirgi davrning dolzarb masalalaridan biridir. Virtual muhit kompyuter yoki smartfon orqali o'qituvchi va talabalar o'rtasida uzluksiz aloqani ta'minlaydigan turli kommunikatsiya vositalarini o'z ichiga oladi. Bunday ta'lim usullari va o'qitish texnologiyalari o'ziga xos psixologik ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Talabalik davri shaxs rivojlanishining muhim bosqichi bo'lib, bu davrda emotsional beqarorlik, ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklar va stress holatlari sezilarli darajada namoyon bo'lishi mumkin. Internet va ijtimoiy tarmoqlarda uzoq vaqt qolish, agressiv kontentni muntazam kuzatish hamda virtual muloqotdagi ziddiyatlar real hayotda agressiv xatti-harakatlarning kuchayishiga olib kelishi ehtimoldan xoli emas. Shu bois, talabalarda internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishning agressiv xulq-atvor shakllanishiga ta'sirini ilmiy jihatdan o'rganish dolzarb masala hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Agressiya psixologiyada murakkab va ko'p qirrali hodisa sifatida talqin qilinadi. Agressiv xulq-atvor – shaxsning boshqa shaxs yoki jamiyat me'yorlariga qarshi, zarar yetkazishga qaratilgan xatti-harakatlari sifatida tushuniladi. Agressiv xatti-harakatlar shaxsning ichki emotsional holati, ijtimoiy muhit hamda individual psixologik xususiyatlari bilan chambarchas bog'liq.

Agressiya ta'rifini bir nechta olimlar nazariyalari asosida ko'rib chiqadigan bo'lsak:

R. Beron va D. Richardson ushbu tushunchaga quyidagicha ta'rif beradi: "Agressiya" lotincha *agressio* so'zidan olingan bo'lib, "hujum" ma'nosini anglatadi hamda bu boshqa jonzotga zarar yetkazishga qaratilgan inson xulq-atvorining turli shakllaridir.

J. Buss fikricha, agressiya natijasida boshqa organizm zararli stimulni qabul qilish reaksiyasiga duch keladi.

N. Zilman tomonidan bildirilgan fikrga ko'ra, agressiya boshqalarga tan jarohati yoki jismoniy zarar yetkazish bilan ifodalanadi.

Agressiv xulq-atvorni tushunish uchun asosiy nazariy yo'nalishlarni chuqur o'rganish zarur. Psixologik nazariyalar agressiyaning kelib chiqishi, shakllanishi va ijtimoiy kontekstini turlicha talqin qiladi. Quyida ushbu yondashuvlarning har biri izchil yoritiladi, shu bilan birga ijtimoiy tarmoqlar va internet kontekstidagi ahamiyati ochib beriladi.

Psixoanalitik yondashuvlar agressiyani shaxs ichki psixikasining tarkibiy qismi sifatida ko'radi. Agressiyaning namoyon bo'lishiga oid turli nazariy asoslar mavjud.

Sigmund Freud fikricha, agressiv xulq o'z tabiati bo'yicha g'ayriixtiyoriy va muqarrar bo'lishi mumkin. Insonda ikkita kuchli instinkt mavjud: jinsiy instinkt (*libido*) va o'lim instinkti (*tanatos*). Agar *tanatos* energiyasi tashqariga yo'naltirilmasa, u shaxsning ichki ziddiyatlarini kuchaytirishi mumkin. Shu sababli *tanatos* bilvosita agressiyaning tashqariga chiqishiga va boshqalarga yo'naltirilishiga xizmat qiladi.

Masalan, talaba virtual platformada o'zining noroziligini yoki ichki stressini agressiv izohlar, haqoratli so'zlar yoki konfliktlar orqali ifodalashi mumkin. Ushbu nazariya agressiya faqat tashqi omillar natijasi emas, balki shaxsning ichki psixologik jarayonlari bilan ham bog'liqligini ko'rsatadi.

hayotiy muhitga moslashish mexanizmi sifatida talqin qilganlar. Biologik yondashuvlarga ko'ra, agressiv tendensiyalar inson evolyutsiyasi davomida shakllangan himoya mexanizmlari bo'lib, ular ijtimoiy kontekstda moslashuvchan xatti-harakatlar sifatida namoyon bo'ladi.

Mazkur yondashuv talabalarda raqamli muhitda yuzaga keladigan agressiyaning kelib chiqish sabablarini tushunishga yordam beradi. Masalan, anonimlik va raqamli faollik shaxsni o'zini himoya qilish instinkti orqali agressiv xatti-harakatlarga yo'naltirishi mumkin.

Albert Banduraning ijtimoiy o'rganish nazariyasi agressiyani o'rganish jarayoni orqali tushuntiradi. Bu nazariyaga ko'ra, shaxs atrofdagilarni kuzatib, ularning xatti-harakatlarini taqlid qiladi. Ushbu konsepsiya ayniqsa media kontent va ijtimoiy tarmoqlar ta'siri kontekstida muhimdir, chunki yoshlar onlayn platformalarda boshqalarning xatti-harakatlarini kuzatadi, ularni "normal" deb qabul qilishi va shunga o'xshash xatti-harakatlarni takrorlashi mumkin.

Albert Banduraning mashhur Bobo doll tajribasi aynan ushbu nazariyani tasdiqlaydi: bolalar kattalar tomonidan agressiv xatti-harakatlarni kuzatgandan so'ng shunga o'xshash agressiyani namoyon qilgan.



Ijtimoiy tarmoqlar bu yondashuv nuqtai nazaridan shunchaki platforma bo'lib qolmay, balki yoshlarning xulq-atvorini o'rganish va taqlid qilish muhitini ham yaratadi. Masalan, Instagram va TikTokda salbiy yoki tajovuzkor kontent, trollik va haqoratli izohlar ba'zan keng tarqalgan odatiy xatti-harakat sifatida qabul qilinishi mumkin, bu esa yoshlar orasida agressiv reaksiyalarni modellashtiradi.

Umumiy agressiya modeli (GAM) – situatsion va shaxsiy omillar o'rtasidagi murakkab o'zaro ta'sirni tushuntiruvchi zamonaviy yondashuvdir. GAMga ko'ra, agressiya faqat bitta omil natijasi emas, balki ko'p omilli jarayon bo'lib, unda kontekstual omillar (ijtimoiy tarmoqlardagi salbiy kontent, onlayn konfliktlar) va individual omillar (emotsional holat, impulsivlik) birgalikda agressiv xatti-harakatlarni shakllantiradi.

GAM ijtimoiy media muhitida ham dolzarb bo'lib, u agressiyaning nafaqat ko'rinishini, balki uni yuzaga keltiruvchi mexanizmlarni ham tushuntiradi. Masalan, ijtimoiy tarmoqlardagi tezkor fikr-mulohazalar, reytinglar va izohlar agressiv javoblarni keltirib chiqaruvchi situatsion signallar sifatida namoyon bo'lishi mumkin.

Leon Festingerning kognitiv dissonans nazariyasiga ko'ra, shaxsning ichki qarashlari va tashqi harakatlari o'rtasidagi nomuvofiqlik psixologik noqulaylikni yuzaga keltiradi. Internet va ijtimoiy tarmoqlarda doimiy solishtirish ushbu dissonansni kuchaytirishi mumkin.

Masalan, talaba boshqalar bilan o'zini taqqoslaganda o'zini pastroq baholashi va ichki stress holati yuzaga kelishi mumkin, bu esa agressiv reaksiyalarga sabab bo'lish ehtimolini oshiradi.

Anonimlik effekti shaxslarda javobgarlik hissining pasayishiga olib kelishi mumkin. Bu holat deindividuat-siya modeli bilan ham uyg'unlashadi: anonim kontekstda shaxs o'zini real hayotdagi ijtimoiy me'yorlardan nisbatan erkin his qiladi, natijada agressiv xatti-harakatlar kuchayishi mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda talabalarda internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishning agressiv xulq-atvorga ta'sirini aniqlash maqsadida kvantitativ hamda qisman sifat metodlari qo'llanildi. Tadqiqot obyekti sifatida oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan 18–25 yoshdagi talabalar tanlab olindi.

Ma'lumotlar yig'ish jarayonida so'rovnoma (anketa) usuli asosiy vosita sifatida qo'llanildi. So'rovnoma tarkibiga talabalar tomonidan internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish darajasi, davomiyligi hamda agressiv xulq-atvor ko'rsatkichlarini aniqlovchi savollar kiritildi. Qo'shimcha ravishda ayrim respondentlar bilan yarim tuzilgan intervyular o'tkazilib, mavzuga oid chuqurroq fikr-mulohazalar olindi.

Olingan ma'lumotlar statistik tahlil usullari yordamida qayta ishlanib, internetdan foydalanish chastotasi bilan agressiv xulq-atvor o'rtasidagi bog'liqlik korrelyatsion tahlil asosida baholandi. Natijalar diagramma va jadvallar orqali ifodalandi.

Tadqiqotning ishonchligini ta'minlash maqsadida anonimlik va maxfiylik tamoyillariga qat'iy rioya qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Turli nazariy yondashuvlar shuni ko'rsatadiki, agressiv xulq-atvor faqat bitta omil bilan tushuntirilmaydi. Biologik instinktlar va ichki psixik jarayonlar (Sigmund Freud, Konrad Lorenz), ijtimoiy o'rganish orqali kuza-tish va taqlid (Albert Bandura), situatsion hamda shaxsiy omillar o'rtasidagi murakkab o'zaro bog'liqlik (GAM), kognitiv nomuvofiqlik (Leon Festinger) va anonimlik kabi kommunikatsion holatlar birgalikda yoshlarning agressiv xatti-harakatlariga ta'sir ko'rsatadi.

Internet va ijtimoiy tarmoqlar ushbu jarayonlarni kuchaytiruvchi vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin, chunki ular yoshlarni tajriba almashishga, model topishga hamda real hayotda maqbul bo'lmagan tajovuzkor kontent bilan muntazam o'zaro ta'sirga olib keladi.

Sigmund Freud agressiyaning insonning tug'ma instinktlaridan biri, shaxsiy psixika ichidagi energiyaning chiqishi sifatida talqin qilgan.

Albert Bandura ijtimoiy o'rganish nazariyasida shaxs atrofdagi agressiv xatti-harakatlarni kuzatish va taqlid qilish orqali agressiyaning o'zlashtirishini ta'kidlagan. Masalan, ijtimoiy tarmoqlardagi tajovuzkor izohlar va trollik faoliyati yoshlarni bunday xatti-harakatlarni odatiy hol sifatida qabul qilishga undashi mumkin.

Konrad Lorenz agressiyaning hayotiy muhitga moslashish va o'zini himoya qilish mexanizmi sifatida izohlagan. Agressiv xulq-atvor turlari:

1. **Jismoniy agressiya** – boshqa shaxsga tan jarohati yetkazish.
2. **Verbal agressiya** – so'z orqali tajovuz qilish, haqorat yoki tahdid.
3. **Bilvosita agressiya** – passiv qarshilik yoki bilvosita zarar yetkazish.
4. **Kiberagressiya** – internet va ijtimoiy tarmoqlarda amalga oshiriladigan agressiv xatti-harakatlar, masalan, haqoratli izohlar, shaxsiy ma'lumotlarni oshkor qilish yoki yolg'on ma'lumot tarqatish.

Internet va ijtimoiy tarmoqlar talabalarga axborot olish, ilmiy faoliyat yuritish hamda ijtimoiy muloqot imkoniyatlarini yaratadi. Shu bilan birga, ularning psixologik holatiga quyidagi ta'sirlar kuzatilishi mumkin:

1. **Emotsional zo'riqish:** internetdagi doimiy yangilanishlar, xabarlar va bildirishnomalar talabaniq diqqatini chalg'itib, stress darajasini oshirishi mumkin.
2. **Ijtimoiy solishtirish:** Instagram, TikTok va Facebook kabi platformalarda boshqalarning "ideal hayot" obrazlarini kuzatish o'zini past baholash va frustratsiyaga olib kelishi mumkin.
3. **Internetga qaramlik:** haddan tashqari foydalanish impulsivlik, sabrsizlik hamda agressiv reaksiyalarni kuchaytirishi ehtimoldan xoli emas.

O'zbekiston yoshlar statistikasiga ko'ra (2022), kuniga 4 soatdan ortiq ijtimoiy tarmoqlarda vaqt o'tkazadigan talabalar orasida stress darajasi 27 foizga, kiberagressiya holatlari esa 15 foizga yuqoriligi qayd etilgan. Shu bilan birga, virtual muhitdagi anonimlik yoshlarning o'zini erkin his qilishiga va ba'zan salbiy oqibatlariga olib keluvchi xatti-harakatlarni amalga oshirishiga turtki bo'lishi mumkin.

Kiberagressiyaning turlari:

1. **Bevosita kiberagressiya:** haqoratli izohlar, tahdidlar, shaxsiy xabarlar orqali tajovuz.
2. **Bilvosita kiberagressiya:** shaxsiy ma'lumotlarni oshkor qilish, yolg'on ma'lumot tarqatish.
3. **Passiv kiberagressiya:** e'tiborsizlik yoki onlayn norozilik bildirish.

Anonimlik effekti shaxsiy javobgarlik hissini kamaytiradi va agressiv xatti-harakatlarning erkinroq namoyon bo'lishiga sharoit yaratadi. Talabalar virtual muhitda o'zini real hayotdagi cheklovlardan nisbatan xoli his qilishi mumkin, bu esa kiberagressiyaning yuzaga kelish ehtimolini oshiradi. Shu bilan birga, salbiy kontentni muntazam kuzatish orqali shaxs agressiviyani odatiy holat sifatida qabul qilishi mumkin.

Talabalarda agressiv xulq-atvorning shakllanish omillari:

1. **Individual psixologik xususiyatlar:** impulsivlik, emotsional beqarorlik, past o'z-o'zini baholash.
2. **Ijtimoiy va oilaviy muhit:** konfliktli oilaviy muhit, do'stlar va jamiyat tomonidan qo'llab-quvvatlashning yetarli emasligi.
3. **Internet va ijtimoiy tarmoqlar bilan bog'liq omillar:** salbiy kontent, kiberbulling, doimiy solishtirish, anonim muloqot.

Ushbu omillarning o'zaro ta'siri talabalarda agressiv xulq-atvorning kuchayishiga sabab bo'lishi mumkin. Nazariy profilaktika va psixologik yondashuvlar:

1. **Media savodxonlik:** talabalarni internetdagi salbiy kontentdan himoya qilish va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish.
2. **Raqamli madaniyat:** ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish madaniyati hamda etik qoidalarni o'rgatish.
3. **Emotsional intellekt:** stressni boshqarish, empatiya va o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish.
4. **Psixologik treninglar:** talabalarni ijtimoiy va emotsional barqarorlikka o'rgatish, konstruktiv konfliktlarni hal qilish ko'nikmalarini shakllantirish.

Nazariy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, media savodxonlik va raqamli madaniyatni oshirish talabalarda agressiv xulq-atvorni kamaytirishga yordam beradi. Shu bilan birga, psixologik treninglar va emotsional intellektni rivojlantirish yoshlarning o'zini boshqarish qobiliyatini oshiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot natijalari talabalarda internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish darajasi ularning psixologik holati hamda xulq-atvoriga sezilarli ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi. Xususan, ijtimoiy tarmoqlarda haddan tashqari ko'p vaqt o'tkazish, agressiv yoki zo'ravonlikka moyil kontentlarni muntazam kuzatish, shuningdek, salbiy onlayn muloqotlarda ishtirok etish talabalarda agressiv xulq-atvor shakllanishiga zamin yaratishi aniqlangan.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, internetdan nazoratsiz va maqsadsiz foydalanish nafaqat vaqtni samarasiz sarflashga, balki asabiylik, jahldorlik, empatiya darajasining pasayishi kabi salbiy psixologik holatlarga ham olib kelishi mumkin. Ayniqsa, anonimlik mavjud bo'lgan onlayn muhitda talabalar o'z his-tuyg'ularini erkinroq, ba'zan esa yetarli nazoratsiz ifodalashi agressiv xatti-harakatlarning kuchayishiga sabab bo'lishi mumkin.



Shu bilan birga, tadqiqot natijalari internet va ijtimoiy tarmoqlarning ijobiy jihatlari ham mavjudligini ko'rsatdi. Ya'ni, ulardan maqsadli, me'yorida va ongli foydalanish orqali bilim olish, ijtimoiy aloqalarni mustahkamlash hamda shaxsiy rivojlanishga erishish mumkin. Demak, asosiy masala internetning o'zida emas, balki undan foydalanish madaniyatida ekanligi ayon bo'ldi.

1. **Raqamli madaniyatni rivojlantirish:** Oliy ta'lim muassasalarida talabalar uchun "raqamli gigiyena" va internetdan oqilona foydalanish bo'yicha maxsus o'quv mashg'ulotlari, seminarlar hamda treninglar tashkil etish zarur.
2. **Psixologik profilaktika ishlarini kuchaytirish:** Talabalarda agressiyani boshqarish, stressni kamaytirish va konfliktlarni konstruktiv hal etish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan psixologik dasturlarni joriy etish maqsadga muvofiq.
3. **Sifatli kontentni targ'ib qilish:** Ta'lim muassasalari va mutaxassislar tomonidan ijobiy, ma'rifiy hamda rivojlantiruvchi kontentlarni keng targ'ib qilish orqali talabalarni foydali axborot muhitiga yo'naltirish lozim.
4. **Nazorat va qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish:** Professor-o'qituvchilar hamda ota-onalar talabalar bilan doimiy muloqotda bo'lib, ularning internetdan foydalanish odatlarini kuzatib borishi va zarur hollarda yo'naltiruvchi tavsiyalar berishi kerak.
5. **Onlayn muloqot madaniyatini shakllantirish:** Talabalarga internet etikasi (netiket) qoidalarini o'rgatish, hurmat va bag'rikenglik asosida muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantirish muhimdir.
6. **Ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish:** Kelgusida ushbu muammoni chuqurroq o'rganish maqsadida turli yosh toifalari, hududlar va ijtimoiy guruhlar kesimida keng ko'lamli empirik tadqiqotlar o'tkazish tavsiya etiladi.
7. **Texnologik vositalardan foydalanish:** Talabalarga vaqtni boshqarish, ekran vaqtini nazorat qilish hamda zararli kontentlarni cheklashga yordam beruvchi mobil ilovalar va dasturlardan foydalanishni tavsiya etish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Craig Anderson, Brad Bushman. Human Aggression. Annual Review of Psychology, 2002.
2. Albert Bandura. Social Learning Theory. New York, 1977.
3. A. Baranov. Internet psixologiyasi. Moskva, 2018.
4. Sigmund Freud. Beyond the Pleasure Principle. London, 1920.
5. E. G'oziev. Umumiy psixologiya. Toshkent, 2019.
6. D. A. Gurjiy. Vliyaniye SMI na formirovaniye obshchestvennogo mneniya. Молодой ученый, 2015, №12 (92), pp. 991–993.
7. R. Johnson. Digital Media and Aggression in Youth. New York, 2021.
8. V.M. Karimova. Yoshlar psixologiyasi. Toshkent, 2020.
9. Sh.A. Madraximova. Talabalarda namoyon bo'ladigan virtual qaramlikning nazariy asoslari. 7 October, 2022.
10. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. O'zbekiston yoshlar statistikasi. Toshkent, 2022.
11. P. Smith. Cyberbullying and Social Media. London, 2020.
12. Kimberly Young. Internet Addiction. American Behavioral Scientist, 2004.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №4(5)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.